

O'zbek olimlaridan virusga qarshi yangi preparat

Gripp va o'tkir respiratorli virus infeksiyalar — mavsumiy xatar. Ammo unga qarshi ilmiy asoslangan yechimlar bor.

Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti olimlari tomonidan viruslarga qarshi faollikka ega, interferon induktori hisoblangan “ЦелАгрип” preparati yaratildi.



Mazkur preparat immunitetni faollashtiradi, viruslarga qarshi tabiiy himoyani kuchaytiradi.

Preparat virusga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki organizmning o'z immun javobini kuchaytirish orqali ta'sir ko'rsatadi. U interferonlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirib, organizmni viruslarga qarshi "tayyor holatga" keltiradi.

Mazkur dori vositasining barcha normativ-texnik hujjatlari loyihalari tayyorlangan.

Ilm-fan yutuqlari asosida yaratilgan mahalliy “ЦелАгрип” — salomatlikni himoya qilish yo'lidagi ishonchli qadam.